

3-Mavzu: Servis xizmatida
extiyot qismlar bilan
ta'minlash tizimi.





Reja:

1. Xizmat ko'rsatish sifati tushunchasi.
2. Xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlovchi xujjatlar.
3. Xizmat ko'rsatish sifatini tartibi xujjatlari.

1. Xizmat ko'rsatish sifati tushunchasi

Umumiy raqobat sharoitida bozorni egallash uchun xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlash lozim. Xizmat ko'rsatish sifatiga sifatli texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, xamda kliyentlar bilan yaxshi muomilani tashkil qilish kiradi.

Xizmat ko'rsatish sifati jixozlariga va korxonalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash vaqtida amalga oshiriladi. Nazorat ishlarini olib borilayotganda subektiv va obyektiv usullardan foydalaniladi.

Bajarilayotgan joyiga qarab, ishlatlayotgan jixozlar, vositalar va priborlar, nazorat usullari va nazorat qilish kattaliklari servis texnik xizmati, ta'mirlash va ta'mirlashga qabul qilish va undan so'ng topshirish ishlari uchun ma'lum texnologik karta va texnik talablar asosida bajariladi. Xizmat ko'rsatishda texnik nazoratni dastlabki, joriy va yakuniy turlarga bo'lish mumkin.



Yuqoridagi ishlarni master-nazoratchi amalga oshiradi va bu ish mashina-jixozlarni qabul qilish vaqtida bajariladi.

Nazorat ishlari brakni oldini olish uchun amalga oshiriladi. Bunda tunika bilan qoplash, payvandlash, bo'yash, jilvirlash, mexanizm uzellarini joylash-yig'ish, dempferlarni xolatini aniqlash sifatlari tekshiriladi.

Jarayondagi nazorat va ta'mirlash ishlari ta'mirlash mexanika ustaxonalarida bajariladi. Bunda texnik nazorat bo'limi katta rol o'ynaydi. Ko'pincha bu ishlarni uchastka yoki sexni katta masterlari, ba'zan esa brigadirlar amalga oshirishadilar.

2. Xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlovchi xujjatlar

Qismlarga ajratish va yigish ishlari mashinalarning kapital tamirlashga ketadigan umumiy mehnat sarfining ancha katta qismini tashkil etadi. Yigiruv mashinalari uchun bu ishlarning mehnat xajmi 33—41% ni, tukuv mashinalari uchun 52—56% ni tashkil etadi. Bu ishlarni, ayniqsa, rezkali va presslangan birikmalarni qismlarga ajratish va yig'ishni har tomonlama mexanizatsiyalashtirish zarur, kislarga ajratishdagi umumiy mehnat hajmida bu ishlarning ulushi tukuv mashinalari va ip yigirish mashinalari uchun tegishlicha taxminan 45% va 20% ni tashkil etadi. Sirtlarni zangdan tozalash uchun tutashmalar oldin kerosinga solib qo'yiladi (kerosinga hullangan latta-putta yopib qo'yish ham mumkin).

Rezba ezilgan, uzilgan bo'lsa va boltlarni qo'l bilan burab chikarishning iloji bo'lmasa, mexanik (elektrik) yuritmaligayka buragichlardan foydalaniladi yoki boltlarning kallagigaz gorelkasi alangasida qizdiriladi, pressda pona yordamida yohud qo'l bilan zubilo keskich va bolg'acha yordamida qirqib tashlanadi. Yumaloqlangan gaykalarni maxsus kesgichlar bilan kesish mumkin. Qismlarga ajratish operatsiyalarida uzellarni qismlarga ajratkichlar uchun universal va maxsus stendlar, priborlar, moslamalar, ajratkichlar va asboblardan foydalanish zarur. Ularning nomenklaturasini kamaytirish uchun universal jihozlar qo'llaniladi. Masalan, yigiruv ,tukuv va trikotaj mashinaliri qismlarga ajratish va yigash uchun ishlatiladigan komplektida 40 nomdagi moslamalar bor; Tikuv stanogiga texnik xizmat ko'rsatishda ishlatiladigan asbob-uskunalar komplektida 30 nomdagi moslamalar bor va hakoza.

Bularga asosiy normativ-texnik, tashkiliy va texnologik xujjatlar kiradi.
Ularga quyidagi texnik xizmat va ta'mirlashni amalga oshiruvchi:
«Istyemolchilar talabini ximoya qiluvchi» O'zbekiston Respublikasi qonuni.

«Tovarlar va xizmat ko'rsatishni sertifikatsiyalash» O'zbekiston Respublikasi qonuni.

Texnik xizmat va texnik ta'mirlash qonuniyatlari,

To'qimachilik va yengil sanoat korxonalariga texnik xizmat, ta'mirlash va zaxira qismlar yetkazib berish preyskuranti.

Korxonalariga metrologik xizmat ko'rsatish.

To'qimachilik, yengil va paxta tozalash korxonalarini mashina-jixozlarini ta'mirlash bo'yicha qo'llanma, instruksiya va ko'rsatmalar.

Texnologik jixozlarni servis kitobchalari.

Texnologik mashina va jixozlarni zaxira qismlarini kataloglari.

Korxonalariga xizmat ko'rsatish ishlarini qaydnomalari.

Jixozlar va korxonalariga xizmat ko'rsatishda ishlatiladigan texnik xujjatlar.

3. Xizmat ko'rsatish sifatini tartibiqiy xujjatlari

Servis xizmati ustaxonalarida texnik xizmat va ta'mirlashni bajarishda texnologik va xisob-kitob xujjatlari, texnik ko'rsatkichlarni qo'llash, texnologik karta, shuningdek ishchi joyini tashkil qilish katta rol o'ynaydi.

Texnologik karta ishlarni bajarish ketma-ketligini ko'rsatadi, bunda qanday jixoz, asbob, vosita, materiallar va qaysi razryadli ishchi bajarishi keltiriladi.

Kartalar jarayoniy va texnologik bo'lishi mumkin. Bunda mashina-agregatni uzeli yoki mexanizmini ta'mirlash yoki unga xizmat ko'rsatishda qo'llaniluvchi jarayonlar ketma-ketligi batafsil keltiriladi.